



## The role of 'personal interests and educational priorities' in shaping the ideal individual as a key factor in preschool education reform

Mukhiddin TASHOV<sup>1</sup>

Oriental University

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received August 2024

Received in revised form

15 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

#### Keywords:

preschool education,  
system,  
improvement,  
child personality,  
upbringing,  
formation,  
development.

### ABSTRACT

The article focuses on the study of "personal interests and the priority of education" in shaping the whole person, one of the key factors in the reform of preschool education in Uzbekistan. It emphasizes the importance of ongoing reforms in the country's preschool education system, particularly the idea of "individual interests and the priority of education," which introduces a humanistic approach to the preschool education process.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss9/S-pp32-37>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" g'oyasi

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

maktabgacha ta'lim,  
tizim,  
takomillashtirish,  
bola shaxsi,  
tarbiya,  
shakllantirish,  
rivojlantirish.

Maqolada O'zbekistonda maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida o'tkazilayotgan islohotlar, maktabgacha ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" g'oyalarining muhim ahamiyati ko'rsatib berilgan.

<sup>1</sup> Associate Professor, PhD, Pedagogy of Continuous Education Department, Oriental University.  
E-mail: [muhiddintoshov1973@gmail.com](mailto:muhiddintoshov1973@gmail.com)

## **Роль «личных интересов и приоритета образования» в формировании идеальной личности как ключевой фактор реформирования дошкольного образования**

### **АННОТАЦИЯ**

**Ключевые слова:**

дошкольное образование, система, совершенствование, личность ребенка, воспитание, формирование, развитие.

Статья посвящена изучению «личных интересов и приоритета образования» в воспитании целостной личности – одного из ключевых факторов реформирования дошкольного образования в Узбекистане. Подчеркивается важность проводимых в стране реформ в системе дошкольного образования, а также идея «индивидуальных интересов и приоритета образования», которая обеспечивает гуманистический подход в процессе дошкольного воспитания.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida maktabgacha ta'limni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta'lim berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan muammo hisoblanadi. Aynan, maktabgacha ta'limni isloh qilishda bolaning maktabga tayyorgarligi bilan belgilanuvchi ta'lim sifatini oshirish muhim va zaruriy bo'lib, bu mazkur masalaning dolzarbligini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim va tarbiya muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalarini o'rganish asosida amalga oshirilmogda.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha keng miqyosdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz MTMlarida ilmiy va pedagogik tarkib tubdan o'zgardi, zamonaviy o'quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan ta'lim maskanlari sifatida samarali faoliyat ko'rsatmogda. Bugungi kunda maktabgacha ta'limni isloh qilish orqali har tomonlama yetuk, axloqan barkamol, estetik va jismoniy jihatdan taraqqiy etgan farzandlar tarbiyasi davlat siyosati darajasidagi masalalar sirasiga kiradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayon – ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, pedagogik faoliyat ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan tizimdir. Bu tizimni boshqarishda va uning sifatini yuqori pog'onaga yuksaltirishda yangi yo'llarni topish, ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi hozirgi zamon tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligini ko'rsatib beradi. Chunki bu vazifani pedagog kadrlar mahorati, ularning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasi, maxsus bilimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini ham oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tizimida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holatda tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri – buyuk

ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi – matabgacha muassasa tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma'nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. MTM rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas'uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san'atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san'atni egallash uchun insondan katta kuch, ijodkorlik va ko'p yillik tajriba talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatining pedagogik-psixologik asoslarini, Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda ularning muqobil turlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini, antikorrupsion ta'lim mazmunini, boshqarishda jahon tajribasi va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish texnologiyalarini ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son qarori va 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-son farmoni hamda hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 21-martdagi "Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishining ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 244-sonli qarorida ifoda etilgan maktabgacha ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" g'oyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarorlarda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishda jahon tajribasini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lgan rahbarlarga ehtiyoj mavjudligi ham alohida qayd etilgan. Bu O'zbekiston Respublikasida yangi ko'rinishdagi maktabgacha ta'lim tizimini yaratish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari hamda ularning muqobil turlarini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlaridan oqilona foydalana olish, maktabgacha ta'lim tizimiga taalluqli innovatsion texnologiyalarni hayotga tatbiq etish malakalariga ega bo'lish lozimligi e'tirof etiladi. Ushbu qarorlarda respublikamizda tarbiyalanayotgan yosh avlodni maktabgacha ta'lim muassasalaridagi qamrovini oshirish, ularni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining **"Ta'lim to'grisidagi"gi Qonunining 5-bob, 44-moddasi "Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi" – deb nomlanadi. Mazkur moddada:** "Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega" – deyilgan.

XXI asrda pedagogdan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab yetiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida rahbarning shaxsiy sifatleri muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim

jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan rahbarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, til bilish darajasi, AKTdan foydalana olishi, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'zining "Milliy tarsaqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" kitobida: "Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama yetuk rahbar oldida dolzarb vazifalar – kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi" – degan fikrni e'tirof etadilar. Darhaqiqat, XXI asrda ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosida huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida maydonga chiqdi. Ma'lumki, ta'lim sifati – kasbiy anglashning kompleks tavsifi bo'lib, zamonaviy rivojlanish bosqichida iqtisodiy taraqqiyot talablariga mos kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli yurituvchi mutaxassis qobiliyati va ish faoliyati bilan belgilanadi. Ta'lim sifatini oshirishda rahbarning muvofiqlashtirish funksiyasi qo'yilgan maqsadlarga erishishiga yordam beradigan yangi holatga samarali tarzda o'tishni ta'minlaydi. Ta'lim sifatini oshirishda rahbarning muvofiqlashtirish funksiyasini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarning boshqariluvchi tizimga qilingan ta'siri "boshqaruv" quyidagi hollarda muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi:

- **birinchidan**, har qanday boshqaruv maqsadli faoliyatdir;
- **ikkinchidan**, boshqaruv boshqa barcha faoliyat turlaridan farq qiladi;
- **uchinchidan**, boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimosti elementlar ob'ektiv tarzda ajratiladi;

- **to'rtinchidan**, boshqaruv tizimning bir sifat holatidan boshqa yuqoriroq sifat holatiga o'tish zarurati bilan xarakterlanadi. Ilmiy adabiyotlarda boshqaruvning ta'limni boshqarishga xos bo'lgan umumiy belgilari ajratilgan:

1. Boshqaruv–bu istalgan muassasadagi odamlar ishini maqsadga yo'nalganligi va uyushqoqligini ta'minlaydigan sub'ektlarning faoliyatidir.

2. Istalgan ijtimoiy tashkilotni boshqarish shu tashkilotning yaratilishi, oyoqqa turishi, faoliyati va rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

3. Boshqarish to'rtta boshqaruv harakatlari yordamida amalga oshiriladi: rejalashtirish, tashkillashtirish, rahbarlik qilish va nazorat.

4. Agar u maqsadga yo'naltirilganlik, tizimlilik, prognostiklik, davriylik xususiyatlariga ega bo'lsa, istalgan sohadagi Boshqarish samara berishi mumkin.

5. Boshqaruv quyidagi talablarga javob bersa, u istalgan faoliyat sohasida samarali bo'lishi mumkin:

- a) boshqaruv mexanizmi ob'ektning murakkabligiga va sub'ekt imkoniyatlariga mos kelsa;

- b) yetarli zahira (vaqt, boshqaruvdagi yechimlar va b.) mavjud bo'lsa;

- v) mezonlar to'g'ri tanlangan bo'lsa;

- g) yaxshi rivojlangan teskari aloqa tizimi mavjud bo'lsa;

- d) inson omili hisobga olingan bo'lsa va boshqalar.

6. Istalgan ijtimoiy tashkilotni boshqarish boshqaruv funksiyalari, tashkiliy tuzilmalari va tashkiliy mexanizmlari orqali to'la loyihalashtirilishi, tasvirlanishi, ta'riflanishi va amalga oshirilishi mumkin. Butun dunyo ta'lim muassasalarida "shaxs", "davlat" va "jamiyat" talablariga javob beruvchi o'zining ta'lim sifati tizimi yaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Shunday ekan, bugungi kunda komil inson tarbiyasida "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" muhim ahamiyat kasb etadi.

**Komil inson** deganda har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma'nan barkamol, jismonan va ruhan tetik inson tushuniladi. Biz maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalayotgan farzandlarimizda aynan shu sifatlarni qaror toptirishimish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki davlatimizning, vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergan ta'lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog'liq. Maktabgacha ta'lim jarayonida rahbar, tarbiyachi, xodimlar, ota-onalar va bola faoliyatini "sub'ekt-sub'ekt" sifatida tashkil etishi zarur. E'tirof etish kerakki, maktabgacha ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik hamkorlikni amalga oshirish mumkin emas. Buning uchun, o'quv-biluv jarayoni ochiq xarakterga ega bo'lishi, o'zaro axborotlar almashinuvi asosida tashkil etilishi kerak. Insonparvarlik omillariga tayangan maktabgacha ta'lim sifati, sub'ektiv omillar: insonning iste'dodi va qobiliyati, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olish kabi jarayonlar bilan uzviy aloqadorlikda kechadi. Bunda shaxslararo hamkorlik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- iste'dod nishonalari;
- o'quvlilik;
- qobiliyat;
- iste'dod;
- oila tarbiyasi sharoiti;
- o'quv yurti;
- o'z xatti-harakati.

Hamkorlikda ta'lim jarayoni quyidagi omillar asosida rivojlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajriba.

Quyidagilar ta'lim-tarbiya jarayonida mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablari hisoblanadi:

- pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash, ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqani o'rnatish;
- tahsil oluvchilarda didaktik motivatsiyani shakllantirish; tahsil oluvchi shaxsining rivojlanish xususiyatlarini bilish;
- AKT va xorij tillarini o'zlashtirish va amaliyotda qo'llay olish; umuminsoniy va umummadaniy qadriyatlardan xabardor bo'lish va ulardan faoliyati mobaynida foydalanish;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- ta'lim muhitiga yangilik kiritish, o'z fanini mukammal bilish; muloqatmandlik, bag'rikenglik, empatiyaga moyillik, yetakchilik, faollik va tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik;

– o‘z faoliyatini tahlil qilish, kompetentlik samarasini rejalashtirish, maqsad va vazifa belgilash, bashorat (prognoz) qilish, o‘zini namoyon eta olish, kamchiliklarini tuzatish va boshqalar.

Har sohada kompetent pedagog bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi. Pedagogning yosh individual xususiyatlarini e‘tiborga olish ta‘kidlanadi. Shu bilan birga zamonaviy pedagog buyuk ma‘naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o‘zida mo‘jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Hozirgi davrning bu talabi – pedagoglarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko‘nikmalariga ega, pedagoglik kompetensiya sirlaridan voqif bo‘lgan, umummadaniy fazilatlarga boy shaxs sifatida ta‘lim-tarbiya jarayonining ijodkori bo‘lishi lozimligini isbotlamoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.-Toshkent:2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 martdagi “Bolalarni davlat maktabgacha ta‘lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishining ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 244-son qarori
5. Mirziyoyev Sh. Milliy tarsaqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017.
6. Maktabgacha ta‘lim muassasasining “Ilk qadam”Davlat o‘quv dasturi,-Toshkent, 2022.